Ta'rif. Agar har qanday $\varepsilon>0$ uchun x ga bog'liq bo'lmagan shunday nomer N mavjud bo'lsaki, $n\succ N$ bo'lganda X sohaning hamma x lari uchun bir vaqtda

$$|S_n(x)-S(x)|<\varepsilon \quad \text{yoki} \quad |r_n(x)|<\varepsilon \qquad (2)$$

tengsizlik o'rinli bo'lsa, u holda, qator X sohada tekis yaqinlashuvchi deyiladi.
Agar X sohada yaqinlashuvchi bo'lgan (1) funktsional qator aytilgan xossaga ega bo'lmasa, u holda bu qatorga notekis yaqinlashuvchi qator deyiladi.
1-misol.

$$\sum_{n=1}^{\infty}x^{n-1}=1+x+x^2+......+x^n$$ funktsional qatorni qaraymiz.

Yechish. Bu qator x ning $(-1;\ 1)$ intervaldagi hamma qiymatlarida, ya'ni x ning $|x|<1$ shartni qanoatlantiruvchi hamma qiymatlarida yaqinlashadi va yig'indisi $\frac{1}{1-x}$ ga teng, chunki bu maxraji x ga teng bo'lgan kamayuvchi geometrik progressiyadir. SHunday qilib berilgan qator $(-1;\ 1)$ intervalda

$$\frac{1}{1-x}=1+x+x^2+x^3+......+x^n+......$$

qatorning yig'indisi bo'lgan $S(x)=\frac{1}{1-x}$ funksiyani aniqlaydi.

2-misol. Ushbu $$\sum_{n=1}^{\infty}\frac{1}{(n+x)(n+x+1)}$$

funktsional qatorning yaqinlashish sohasi va yig'indisini toping.

Yechish. $S_n(x)=\frac{1}{(n+x)(n+x+1)}$ funktsiya $x=-n$ va $x=-(n+1)$ nuqtalarda aniqlanmagan (bu nuqtalar funktsiyani uzulish nuqtalari), shuning uchun biz qatorni $x\neq -n \quad (n=1,\ 2,\ 3,......)$ nuqtalarda tekshiramiz.

$$S_n(x)=\frac{1}{n+x}-\frac{1}{n+x+1}$$

ekanligini e'tiborga olib,qatorning n -qismiy yig'indisini quyidagi ko'rinishda yozamiz:

$$S_n(x)=\frac{1}{(1+x)(2+x)}+\frac{1}{(2+x)(3+x)}+\ldots\ldots\frac{1}{(n+x)(n+x+1)}=$$

$$=\left(\frac{1}{1+x}-\frac{1}{2+x}\right)+\left(\frac{1}{2+x}-\frac{1}{3+x}\right)+\left(\frac{1}{3+x}-\frac{1}{4+x}\right)+\ldots\ldots+$$

$$+\left(\frac{1}{n-1+x}-\frac{1}{n+x}\right)+\left(\frac{1}{n+x}-\frac{1}{n+x+1}\right)=\frac{1}{1+x}-\frac{1}{n+x+1}$$

Demak, $\lim\limits_{n\to\infty} S_n(x)$ mavjud va

$$S(x)=\lim_{n\to\infty}S_n(x)=\lim_{n\to\infty}\left(\frac{1}{1+x}-\frac{1}{n+x+1}\right)=\frac{1}{1+x},$$

Ya'ni, qator x ning $x\neq -n \quad (n=1,\ 2,\ 3,\ldots)$ shartni qanoatlantiruvchi barcha qiymatlarida yaqinlashadi va yig'indisi $S(x)=\dfrac{1}{1+x}$ funktsiyadan iborat bo'ladi.

Darsda yechish uchun misollar

189. Ushbu $\dfrac{4-x}{7x+2}+\dfrac{1}{3}\left(\dfrac{4-x}{7x+2}\right)^2+\dfrac{1}{5}\left(\dfrac{4-x}{7x+2}\right)^3+\ldots;$ funktsional qatorning $x=0$ va $x=1$ nuqtalarda yaqinlashishi tekshirilsin.

190. Ushbu $\dfrac{1}{1+x^2}+\dfrac{1}{1+x^4}+\dfrac{1}{1+x^6}+..;$ funktsional qatorning yaqinlashishi tekshirilsin va yaqinlashish sohasi topilsin. J: $|x|>1$

191. Ushbu $\sum\limits_{n=1}^{\infty}\dfrac{(-1)^{n-1}}{x^{2n}+n};$ funktsional qatorning $(-\infty,\infty)$oraliqda tekis yaqinlashishi ko'rsatilsin.

192. Ushbu $x+\dfrac{x^2}{2}+\dfrac{x^3}{4}+\dfrac{x^4}{8}+\ldots,$ funktsional qatorning $(-2;2)$ intervalda yaqinlashishi isbot qilinsin.

Berilgan funktsional qatorlarning yaqinlashish intervalini toping.

193. $x+\dfrac{x^2}{\sqrt{2}}+\dfrac{x^3}{\sqrt{3}}+\dfrac{x^4}{\sqrt{4}}+\dfrac{x^5}{\sqrt{5}}+\ldots+\dfrac{x^n}{\sqrt{n}}+\ldots$

194. $\dfrac{x}{1+x}+\dfrac{x^2}{1+x^4}+\dfrac{x^3}{1+x^6}+\dfrac{x^4}{1+x^8}+\dfrac{x^5}{1+x^{10}}+\ldots+\dfrac{x^n}{1+x^{2n}}+\ldots$

195. $\dfrac{1}{1+x}+\dfrac{1}{1+x^2}+\dfrac{1}{1+x^3}+\dfrac{1}{1+x^4}+\ldots+\dfrac{1}{1+x^n}+\ldots$

196. $\dfrac{\cos x}{e^x}+\dfrac{\cos 2x}{e^{2x}}+\dfrac{\cos 3x}{e^{3x}}+\dfrac{\cos 4x}{e^{4x}}+\dfrac{\cos 5x}{e^{5x}}+\ldots+\dfrac{\cos nx}{e^{nx}}+..$

197. $\dfrac{\sin x}{1}+\dfrac{\sin 2x}{2^2}+\dfrac{\sin 3x}{3^2}+\dfrac{\sin 4x}{4^2}+\dfrac{\sin 5x}{5^2}+\ldots+\dfrac{\sin nx}{n^2}+..$

198. $e^{-x}+e^{-4x}+e^{-9x}+e^{-16x}+\ldots+e^{-n^2x}+\ldots$

Mustaqil uy vazifasi uchun misollar

Berilgan funktsional qatorlarning yaqinlashish intervalini toping.

199. $x-\frac{x^3}{3!}+\frac{x^5}{5!}-\frac{x^7}{7!}+...+(-1)^{n+1}\frac{x^{2n-1}}{(2n-1)!}+...,$

200. $(x+8)+\frac{(x+8)^2}{2^2}+\frac{(x+8)^3}{3^2}+\frac{(x+8)^4}{4^2}+...+\frac{(x+8)^n}{n^2}+...$

201. $\ln x+\ln^2 x+\ln^3 x+\ln^4 x+...+\ln^n x+...$

202. $x+x^4+x^9+x^{16}+...+x^{n^2}+...$

203. $tg\,x+\frac{tg^2x}{2^2}+\frac{tg^3x}{3^2}+\frac{tg^4x}{4^2}+\frac{tg^5x}{5^2}+...+\frac{tg^nx}{n^2}+...$

Darajali qatorlar. Yaqinlashish intervali.

$$\sum_{n=0}^{\infty} a_n x^n = a_0+a_1x+a_2x^2+a_3x^3+...+a_nx^n+... \quad (1)$$

ko'rinishdagi funktsional qatorga darajali qator deyiladi. Bunda a_i $(i=\overline{0,\infty})$ lar o'zgarmas sonlar bo'lib, darajali qatorning koeffitsientlari deyiladi.

x argumentga tayin bir qiymat berish natijasida (1) darajali qator sonli qatorga aylanadi va bu sonli qator yaqinlashuvchi yoki uzoqlashuvchi bo'lishi mumkin.

(1) darajali qator yaqinlashadigan barcha $x=\bar{x}$ nuqtalardan tashkil topgan $X=\{\bar{x}\}$ to'plamga darajali qatorning yaqinlashish sohasi deyiladi.

1-teorema. (Abel teoremasi) Agar (1) darajali qator 0 dan farqli $x=\bar{x}$ qiymat uchun yaqinlashuvchi bo'lsa, u holda bu qator $|x|<|\bar{x}|$ tengsizlikni qanoatlantiruvchi istalgan x uchun absolyut yaqinlashuvchi bo'ladi; agar qator $x=\bar{x}$ qiymat uchun uzoqlashuvchi bo'lsa, u holda bu qator $|x|>|\bar{x}|$ tengsizlikni qanoatlantiruvchi istalgan x da uzoqlashuvchi bo'ladi.

$\bar{x}=R$ desak, bu R songa darajali qatorning yaqinlashish radiusi deyiladi. $(-R;\ R)$ interval esa yaqinlashish intervali deyiladi.

Darajali qatorning yaqinlashish radiusi R ni aniqlash uchun Dalamber belgisidan foydalanib, quyidagiga ega bo'lamiz :

$$R=\lim_{n\to\infty}\frac{|a_n|}{|a_{n+1}|}$$

Darajali qatorning yaqinlashish radiusi R ni aniqlash uchun shunga o'xshash Koshi alomatidan ham foydalansak, u holda

$$R=\frac{1}{\lim\limits_{n\to\infty}\sqrt[n]{a_n}}$$

1-misol. Ushbu

$$\sum_{n=1}^{\infty}\frac{3^n x^n}{2^n\sqrt{n}}=\frac{3x}{2}+\frac{3^2x^2}{2^2\sqrt{2}}+\frac{3^3x^3}{2^3\sqrt{3}}+...$$

darajali qatorning yaqinlashish intervali topilsin.

Yechish. Dalamber belgisini tatbiq etamiz:

$$R=\lim_{n\to\infty}\left|\frac{a_n}{a_{n+1}}\right|=\lim_{n\to\infty}\left|\frac{3^n\cdot 2^{n+1}\sqrt{n+1}}{3^{n+1}2^n\sqrt{n}}\right|=\lim_{n\to\infty}\left|\frac{2}{3}\sqrt{\frac{n+1}{n}}\right|=\frac{2}{3}\lim_{n\to\infty}\sqrt{\frac{1}{1+\frac{1}{n}}}=\frac{2}{3}$$

Demak, $R=\frac{2}{3}$ bo'ladi. Bundan $(-\frac{2}{3};\frac{2}{3})$ interval berilgan qator uchun yaqinlashish intervali bo'ladi.

Endi intervalning chetki nuqtalarida (ya'ni $x=-\frac{2}{3}$ va $x=\frac{2}{3}$da) berilgan qatorning yaqinlashishini, tekshiramiz.
Buning uchun har bir chegarada yakka-yakka holda tekshiramiz.

a) $x=-\frac{2}{3}$ bo'lganda $\sum_{n=1}^{\infty}\frac{3^n\left(-\frac{2}{3}\right)^n}{2^n\sqrt{n}}=1+\frac{1}{\sqrt{2}}-\frac{1}{\sqrt{3}}+\frac{1}{\sqrt{4}}-...$ ishoralari navbatlashuvchi sonli qator hosil bo'ladi. qator uchun Leybnits teoremasining ikkala sharti ham bajariladi, yahni

1) $1>\frac{1}{\sqrt{2}}>\frac{1}{\sqrt{3}}>\frac{1}{\sqrt{4}}>...;$

2) $\lim_{n\to\infty}\frac{1}{\sqrt{n}}=0$

va demak, berilgan qator $x=-\frac{2}{3}$ nuqtada yaqinlashuvchi. b) $x=\frac{2}{3}$ bo'lganda

$$\sum_{n=1}^{\infty}\frac{1}{\sqrt{n}}=1+\frac{1}{\sqrt{2}}-\frac{1}{\sqrt{3}}+\frac{1}{\sqrt{4}}-... \qquad (5.8)$$

musbat hadli sonli qator hosil bo'ladi. (5.8) qator uzoqlashuvchi.
Demak, berilgan darajali qator uchun yaqinlashish intervali $\left[-\frac{2}{3};\frac{2}{3}\right[$ yoki $-\frac{2}{3}\le x<\frac{2}{3}$ bo'ladi.

2-misol. $$x+\frac{x^2}{2!}+\frac{x^3}{3!}+\frac{x^4}{4!}+...+\frac{x^n}{n!} \qquad (5.9)$$

qatorning yaqinlashish intervali topilsin.
Yechish. Berilgan qatorga Dalamber belgisini tatbiq etsak,

$$\lim_{n\to\infty}\left|\frac{x^{n+1}n!}{x^n(n+1)!}\right|=|x|\lim_{n\to\infty}\frac{1}{n+1}=0<1$$

limitning x ga bog'liq emasligi va birdan kichikligi tufayli qator x ning barcha qiymatlarida yaqinlashadi, yahni qatorning yaqinlashish radiusi $R=\infty$ bo'lib, yaqinlashish intervali $]-\infty,+\infty[$dan ibrat.

Darsda yechish uchun misollar

Berilgan darajali qatorlarning yaqinlashish intervali aniqlansin va intervalining chegaralarida ham qatorni yaqinlashishi tekshirilsin:

204 $1+\frac{1}{3\cdot 2}x+\frac{1}{3^2\cdot 3}x^2+\frac{1}{3^2\cdot 4}x^3+...\frac{1}{3^n\cdot(n+1)}x^n+;$

205. $x - \frac{x^2}{2} + \frac{x^3}{3} - \frac{x^4}{4} + \frac{x^5}{5} - ... + (-1)^n \frac{x^n}{n} + ...$

206. $x + \frac{x^2}{20} + \frac{x^3}{300} + \frac{x^4}{4000} + ... + \frac{x^n}{n \cdot 10^{n-1}} + ...$

207. $1 + 2x^2 + 4x^4 + ... + 2^{n-1} x^{2(n-1)} + ...$

208. $x + 4x^2 + 27x^3 + 256x^4 ... + (n \cdot x)^n + ...$

209. $\sum_{n=1}^{\infty} (-1)^{n-1} \frac{x^n}{(2n)!};$

210. $\sum_{n=1}^{\infty} (-1)^{n+1} \frac{x^n}{(n+1) \cdot 7^{n-1}};$

211. $\sum_{n=1}^{\infty} \frac{x^n n}{(n+1) 2^n};$

212. $\sum_{n=1}^{\infty} \left(\left(\frac{n+1}{n} \right)^n x \right)^n;$

213. $\sum_{n=1}^{\infty} \frac{(x-2)^n n}{(2n-1)2^n};$

214. $\sum_{n=1}^{\infty} \frac{x^n}{(n+1)^2 e^{n-1}};$

Mustaqil uy vazifasi uchun misollar

Berilgan darajali qatorlarning yaqinlashish intervali aniqlansin va intervalining chegaralarida ham qatorni yaqinlashishi tekshirilsin:

215. $x - \frac{x^3}{3 \cdot 3!} + \frac{x^5}{5 \cdot 5!} - \frac{x^7}{7 \cdot 7!} ... + \frac{x^{2n-1}}{(2n-1) \cdot (2n-1)!} + ...$

216. $1 + x + 2x^2 + 6x^3 + 24x^n ... + n! \cdot x^n + ...$

217. $\sum_{n=1}^{\infty} \frac{2^n \cdot n!}{(2n)!} x^{2n}$

218. $x + \frac{x^2}{2^2} + \frac{x^3}{3^2} + \frac{x^4}{4^2} + \frac{x^5}{5^2} + ... + \frac{x^n}{n^2} + ...$

Ba'zi elementar funksiyalarni darajali qatorga yoyish.

Agar $f(x)$ funktsiya $x = a$ nuqtani o'z ichiga olgan biror intervalda $(n+1)$- tartibli hamma hosilalarga ega bo'lsa, u holda $f(x)$ funksiya uchun qoldiq hadli Teylor formulasi quyidagi ko'rinishda bo'ladi:

$$f(x) = f(a) + = \frac{(x-a)}{1!} f'(a) + ... + \frac{(x-a)^n}{n!} f^{(n)}(a) + R_n(x) \quad (1)$$

bundagi $R_n(x)$ qoldiq had, quyidagi

$$R_n(x) = \frac{(x-a)^{n+1}}{(n+1)!} f^{(n+1)}\{a + \upsilon(x-a)\} \quad (0 < \upsilon < 1) \quad (2)$$

Lagranj formulasi bilan baholanadi.

Agar $f(x)$ funktsiya $x = a$ nuqta atrofida istalgan tartibli hosilaga ega bo'lsa, Teylor formulasidagi n sonini istagancha kattalashtirib olish mumkin. Bunday holda n sonining cheksiz o'sishi bilan ko'phad quyidagi

$$f(x) \approx f(a) - \frac{(x-a)}{1!} f'(a) + \frac{(x-a)^2}{2!} f''(a) + ... + \frac{(x-a)^n}{n!} f^{(n)}(a) + ... \quad (3)$$

cheksiz qatorga aylanadi.

Bu qator, ya'ni Teylorning formal ravishda yozilgan qatori o'zining yaqinlashish intervalida $f(x)$ dan $\lim_{n\to\infty} R_n(x)$ miqdor bilan farq qiluvchi funktsiyadir, chunki:

$$R_n(x)=\left\{f(x)-f(a)-\frac{(x-a)}{1!}f'(a)-\frac{(x-a)^2}{2!}f''(a)-...-\frac{(x-a)^n}{n!}f^{(n)}(a)\right\}$$

Agar Teylor formulasida n soni cheksizlikka intilganda $(n\to\infty)$, $R_n(x)$ qoldiq had x ning barcha qiymatlarida nolga intilsa, ya'ni $\lim_{n\to\infty} R_n(x)=0$ bo'lsa, u holda bu formuladan $f(x)$ funktsiyaga yaqinlashuvchi quyidagi

$$f(x)=f(a)+\frac{(x-a)}{1!}f'(a)+\frac{(x-a)^2}{2!}f''(a)+...+\frac{(x-a)^n}{n!}f^{(n)}(a)+... \quad (4)$$

cheksiz qator hosil bo'ladi. (4) qator $f(x)$ funktsiyaning $x=a$ nuqtadagi Teylor qatori deyiladi.

Agar Teylor qatorida $a=0$ deb olsak, u holda Teylor qatorining xususiy holi bo'lgan Makloren qatorini hosil qilamiz:

$$f(x)=f(0)+\frac{x}{1!}f'(0)+\frac{x^2}{2!}f''(0)+...+\frac{x^n}{n!}f^{(n)}(0)+... \quad (5)$$

Matematik analizning ko'pchilik masalalarida berilgan $f(x)$ funktsiyani Teylor yoki Makloren qatoriga yoyishga to'g'ri keladi. Ko'p hollarda bu masala quyidagi taxminiy plan yordamida yechiladi:

1. $f(x)$ funktsiyaning ketma-ket hosilalari topiladi;
2. $f(a)$ va $f^{(n)}(a)$ sonlar hisoblanadi $(n=1, 2, 3...)$;
3. $f(x)$ funktsiya uchun Teylor qatori formal ravishda yoziladi, ya'ni

$$f(x)\approx f(a)-\frac{(x-a)}{1!}f'(a)+\frac{(x-a)^2}{2!}f''(a)+...+\frac{(x-a)^n}{n!}f^{(n)}(a)+...$$

Ba'zi elementar funktsiyalarni darajali qatorga yoyilmasi:

1. $\sin x=x-\frac{x^3}{3!}+\frac{x^5}{5!}-...+(-1)^n\frac{x^{2n+1}}{(2n+1)!}+...;$
2. $\cos x=1-\frac{x^2}{2!}+\frac{x^4}{4!}-...+(-1)^n\frac{x^{2n}}{(2n)!}+...;$
3. $\ln(1+x)=x-\frac{x^2}{2!}+\frac{x^3}{3!}+...+(-1)^{n-1}\frac{x^n}{n}+...;$
4. $e^x=1+\frac{x}{1!}+\frac{x^2}{2!}+\frac{x^3}{3!}+...+\frac{x^{n-1}}{(n-1)!}+...;$
5. $arctgx=x-\frac{x^3}{3}+\frac{x^5}{5}-\frac{x^7}{7}+...+(-1)^{n-1}\frac{x^{2n-1}}{(2n-1)!}+...; \quad (|x|<1)$
6. $\arcsin x=x-\frac{x^3}{2\cdot 3}+\frac{1\cdot 3x^5}{2\cdot 4\cdot 5}+\frac{1\cdot 3\cdot 5x^7}{2\cdot 4\cdot 6\cdot 7}+...(|x|<1)$
7. $\frac{1}{1-x}=1+x+x^2+...x^n+..., (|x|<1)$

8. $\frac{1}{1+x}=1-x+x^2-x^3+...+(-1)^{n-1}x^{n-1}+...,\ (|x|<1)$

9. $\sqrt{1+x}=1+\frac{1}{2}x-\frac{1}{2\cdot 4}x^2+...+(-1)^n\frac{1\cdot 3\cdot 5...(2n-5)x^{n-2}}{2\cdot 4\cdot 6\cdot 8...(2n-2)}+x$

10. $\frac{1}{\sqrt{1+x}}=1-\frac{1}{2}x-\frac{1\cdot 3}{2\cdot 4}x^2-\frac{1\cdot 3\cdot 5}{2\cdot 4\cdot 6}x^3+...,\ (-1<x<1)$

11. $(1+x)^m=1\_mx+\frac{m(m-1)}{2!}x^2+\frac{m(m-1)(m-2)}{3!}x^3+...$

$...+\frac{m(m-1)(m-2)...(m-n+1)}{n!}x^n+...$ binomial qator

12. $(arctgx)'_x=\frac{1}{1+x^2}=1+x^2+x^4+...+(-1)^{n-1}x^{2n-2}+...,\ (|x|<1)$

13. $(\arcsin x)'_x=\frac{1}{\sqrt{1-x^2}}=1+\frac{1}{2}x^2+...+\frac{(2n-1)!!}{2n!!}x^{2n}+...,\ (|x|<1)$

1-misol. $f(x)=\ln\sqrt[3]{\frac{1+2x}{1-x}}$ Funktsiyani x ning darajalari bo'yicha qatorga yoyilsin.

Yechish. Bizga ma'lumki $ln(1+x)=\sum_{n=1}^{\infty}(-1)^{n+1}\frac{x^n}{n},\quad (-1\langle x\langle 1)$

shuning uchun

$$ln(1+2x)=\sum_{n=1}^{\infty}(-1)^{n+1}\frac{2^nx^n}{n},\quad (-\frac{1}{2}\langle x\langle\frac{1}{2})$$

$$ln(1-x)=-\sum_{n=1}^{\infty}\frac{x^n}{n},\quad (-1\langle x\langle 1)$$

bundan,

$$\ln\sqrt[3]{\frac{1+2x}{1-x}}=\frac{1}{3}[\ln(1+2x)-\ln(1-x)]=\frac{1}{3}\left[\sum_{n=1}^{\infty}(-1)^{n+1}\frac{2^nx^n}{n}-\sum_{n=1}^{\infty}\frac{x^n}{n}\right]=$$

$$=\frac{1}{3}\left[\sum_{n=1}^{\infty}(1+(-1)^{n+1}\cdot 2^n)\cdot\frac{x^n}{n}\right]=\frac{1}{3}\left(3x-\frac{3}{2}x^2+\frac{9}{3}\cdot x^3-\frac{15}{4}x^4+...\right)=$$

$$=x-\frac{1}{2}x^2+x^3-\frac{5}{4}x^4+...,\qquad \left(-\frac{1}{2}<x<\frac{1}{2}\right)$$

Darsda yechish uchun misollar

Berilgan funktsiyalarni Teylor qatoriga yoying.

219. $f(x)=e^{-x^2}$

220. $f(x)=e^{5x}$

221 . $f(x)=ln(1+4x)$

222. $f(x)=\sqrt{1+x^3}$

223. $f(x)=(1+x)\cdot e^x$

224. $f(x)=\dfrac{3}{(1-x)(1+2x)}$ funktsiyani x ning darajalari bo'yicha qatorga yoyilsin

225. $f(x)=\ln x$ funktsiyani $(x-1)$ ning darajalari bo'yicha qatorga yoyilsin.

226. $f(x)=x^3-3x$ funktsiya $(x+1)$ ning darajalari bo'yicha qatorga yoyilsin.

227. $f(x)=ln\left(x+\sqrt{1+x}\right)$ funktsiya x ning darajalari bo'yicha qatorga yoyilsin. (Ko'rsatma $ln\left(x+\sqrt{1+x}\right)=\int\limits_0^x \dfrac{dt}{\sqrt{1+t^2}}$ formuladan foydalaning).

Mustaqil uy vazifasi uchun misollar

Berilgan funktsiyalarni $x=0$ nuqta atrofida Teylor qatoriga yoying.

228. $f(x)=e^{3x}$ 229. $f(x)=\ln(1-2x)$ 230. $f(x)=\ln(1-\dfrac{x}{3})$

231. $f(x)=\sqrt{1+x^3}$

Fur'e qatorlari

Dirixle sharti. Agar $y=f(x)$ funksiya (a,b) oraliqda chegaralangan va bo`lakli – monoton bulsa , u holda bu funksiya (a,b) oraliqda Dirixle shartlarini qanoatlantiradi deyiladi.

Agar $y=f(x)$ funksiya uzunligi 2π ga teng $(-\pi;\pi)$ oraliqda Dirixle shartlarini qanoatlantirsa, u xolda bu oraliqning $f(x)$ uzluksiz bo`lgan har qanday $x$ nuqtasida funksiyani Fur'e trigonometrik qatoriga yoyish mumkin, ya`ni

$$f(x)=\frac{a_0}{2}+\sum_{n=1}^{\infty}\left(a_n\cos nx+b_n\sin nx\right),$$

bu yerda a_n,b_n - Fur'e koeffisientlari bo`lib, ular quyidagi formulalar bo'yicha hisoblanadi

$$a_n=\frac{1}{\pi}\int_{-\pi}^{\pi}f(x)\cos nxdx,\ b_n=\frac{1}{\pi}\int_{-\pi}^{\pi}f(x)\sin nxdx$$

Darsda yechish uchun misollar

Quyidagi funksiyalarni berilgan oraliqda Fur'e qatoriga yoying

232. $f(x)=x;\ [-\pi;\pi]$. 233. $f(x)=e^x;[-\pi;\pi]$. 234. $f(x)=x^3;\ [-\pi;\pi]$.

235. $f(x)=\begin{cases}-1\ ,\ -\pi\le x\le 0\\ 1\ ,\ \ 0\le x\le\pi\end{cases}$. 236. $f(x)=1;\ [-\pi;\pi]$.

Quyidagi tengliklarni isbotlang.

237. 1) $\sum\limits_{n=1}^{\infty}\dfrac{(-1)^n}{n^2}=\dfrac{\pi^2}{12}$ 2) $\sum\limits_{n=1}^{\infty}\dfrac{1}{n^2}=\dfrac{\pi^2}{6}$ 3) $\sum\limits_{n=1}^{\infty}\dfrac{(-1)^{n+1}}{2n-1}=\dfrac{\pi}{4}$

Mustaqil uy vazifasi uchun misollar

Quyidagi funksiyalarni berilgan oraliqda Fur'e qatoriga yoying.

238. $f(x)=\pi+x;\ [-\pi;\pi]$ 239. $f(x)=\begin{cases}-2x\ ,-\pi\le x\le 0\\ 3x\ \ ,0\le x\le\pi\end{cases},\ T=2\pi$

Quyidagi tengliklarni isbotlang.

240. 1) $\sum_{n=1}^{\infty}\frac{1}{4n^2-1}=\frac{1}{2}$ 2) $\sum_{n=1}^{\infty}\frac{1}{(2n-1)^2}=\frac{\pi^2}{8}$

Ko`p o`zgaruvchili funksiya va uning aniqlanish sohasi.

1-Misol Ushbu $z=\frac{1}{R^2-x^2-y^2}$ funksiyaning aniqlanish sohasini toping.

yechish: Funksiyaning aniqlanish sohasi $\frac{1}{R^2-x^2-y^2}$ ifoda aniqlangan nuqtalar to`plami ya`ni $R^2-x^2-y^2\neq 0$ yoki $x^2+y^2\neq R^2$ bajariladigan nuqtalar to`plami bo`ladi. Bu to`plamga tekislikning $x^2+y^2=R^2$ aylana nuqtalaridan tashqari hamma nuqtalari tegishli bo`ladi.

2. Misol. Ushbu $U=\sqrt{R^2-x^2-y^2-z^2}$ funksiyaning aniqlanish sohasini toping.

Yechish: Funksiya $R^2-x^2-y^2-z^2\geq 0$ yoki $x^2+y^2+z^2\leq R^2$ Demak, aniqlanish sohasi shar.

Darsda yechish uchun misollar

Funksiyalarning aniqlanish sohasini toping.

241. $z=\frac{4}{x^2+y^2}$ j: (0,0) nuqtadan tashqaridagi nuqtalar

242. $z=\sqrt{a^2-x^2-y^2}$ j: $x^2+y^2\leq a^2$

243. $z=\sqrt{xy}$ j: $xy\geq 0$

244. $z=\frac{1}{\sqrt{1-x^2-y^2}}$ j: $x^2+y^2<1$

245. $z=\frac{xy}{y-x}$ j: . $y=x$ to`g`ri chiziqdan tashqaridagi nuqtalar

246. $z=\ln(y^2-4x+8)$ j: $y^2>48-8$

247. $z=\sqrt{1-\frac{x^2}{a^2}-\frac{y^2}{b^2}}$ j: $\frac{x^2}{a^2}+\frac{y^2}{b^2}\leq 1$

248. $Z=\sqrt{4-x^2-y^2}$ j: $x^2+y^2\geq 4$

249. $z=\ln(x+2y)$ j: $x+2y>0$

250. $Z=\frac{1}{xy-2}$ j: $xy\neq 2$

251. $Z=x^2y-\sqrt{y}$ j: $y\geq 0$

Mustaqil uy vazifasi uchun misollar

Funksiyalarning aniqlanish sohasini toping

252. $z=\sqrt{x+y}$ - $\sqrt{x-y}$ j: Kordinata burchaklarining bissektrissalari tashkil etgan o`ng vertikal burchakning ichki qismi (bissektrissalar ham kirgan holda)

253. $z=\frac{4}{x+y}$ j: $y=-x$ to`g`ri chiziqdan tashqari tekislikning barcha nuqtalari.

254. $z=x+\sqrt{x^2-y^2}$ j: $|y|\leq|x|$ burchak ichidagi va tomonlaridagi nuqtalar

255. $Z=\sqrt{1-\frac{x^2}{a^2}-\frac{y^2}{b^2}}$ j: $\frac{x^2}{a^2}+\frac{y^2}{b^2}=1$ ellipsning ichki nuqtalari va ellipsda yotgan nuqtalar to`plami.

256. $z=\arccos\frac{y-6}{x}$ j: $y\geq -x+6$ $y\leq x+6$

Funksiyaning birinchi tartibli xususiy hosilalari

1-Misol. Ushbu $z=\sqrt{x^2+y^2}$ funksiyaning xususiy hosilalarini toping.

Yechish: y ni o`zgarmas deb hisoblab funksiyaning, $\frac{\partial z}{\partial x}$ xususiy hosilasini topamiz.

$\frac{\partial z}{\partial x}=\frac{1}{2\sqrt{x^2+y^2}}\cdot 2x=\frac{x}{\sqrt{x^2+y^2}}$ x ni o`zgarmas deb

$$\frac{\partial z}{\partial y}=\frac{1}{2\sqrt{x^2+y^2}}\cdot 2y=\frac{y}{\sqrt{x^2+y^2}}$$

ni topamiz.

2- Misol: $U=xyz$ funksiyaning xususiy hosilalarini toping.

Yechish: y va z ni o`zgarmas deb hisoblab, uning $\frac{\partial U}{\partial x}$ xususiy hosilasini topamiz. $\frac{\partial U}{\partial x}=yz$

x va z ni o`zgarmas deb hisoblab, $\frac{\partial U}{\partial y}$ hosilasini topamiz. $\frac{\partial U}{\partial y}=xz$

x va y ni o`zgarmas deb hisoblab, $\frac{\partial U}{\partial z}$ hosilasini topamiz. $\frac{\partial U}{\partial z}=xy$

Darsda yechish uchun misollar

Funksiyaning xususiy hosilalarini toping.

257. $z=x-y$ J: $\frac{\partial z}{\partial x}=1,\ \frac{\partial z}{\partial y}=-1$

258. $z=x^3y-y^3x$ J: $\frac{\partial z}{\partial x}=3x^2y-y^3,\frac{\partial z}{\partial y}=x^3-3y^2x$

259. $z=\frac{U}{V}+\frac{V}{U}$ J: $\frac{\partial z}{\partial u}=\frac{1}{V}-\frac{V}{U^2},\ \frac{\partial z}{\partial V}=-\frac{U}{V^2}+\frac{1}{U}$

260. $z=\frac{x^3+y^3}{x^2+y^2}$ J: $\frac{\partial z}{\partial x}=\frac{y}{x^2+y^2},\frac{\partial z}{\partial y}=-\frac{x}{x^2+y^2}$

261. 1) $z=(5x^2y-y^3+7)^3$ J: $.\frac{\partial z}{\partial x}=30xy(5x^2y-y^3+7)^2$ $\frac{\partial z}{\partial y}=3(5x^2y-y^3+7)^2(5x^2-3y^2)$

2) $z=x^2-2xy+y^2-x+2y$ sirtga M(1,1,1) nuqtada o'tkazilgan urinma va normal tenglamasini tuzing. J: $x-2y+z=0$, $\frac{x-1}{-1}=\frac{y-1}{2}=\frac{z-1}{-1}$

262. $z=arctg\,\frac{x}{y}$ J: $\frac{\partial z}{\partial x}=\frac{y}{x^2+y^2}$; $\frac{\partial z}{\partial x}=\frac{x}{x^2+y^2}$;

263. 1) $u=x^y$ $\frac{x}{y}\cdot\frac{\partial u}{\partial x}+\frac{1}{\ell nx}\cdot\frac{\partial u}{\partial y}=2y;$ ekanini isbot qiling.

2) $f(\mathrm{x,y})=\mathrm{x}^y$ $x=\frac{u}{v},\ y=uv$ $f_u'(\mathrm{x,y})$, $f_v'(\mathrm{x,y})$ ni toping

Mustaqil uy vazifasi uchun misollar

Funksiyaning xususiy hosilalarini toping.

264. $z=e^{\frac{x}{y}}\ell ny$ $x\frac{\partial u}{\partial x}+y\cdot\frac{\partial z}{\partial y}=\frac{z}{\ell ny};$ ekanini isbot qiling.

265. $z=\ell n(x+\sqrt{x^2+y^2})$ 266. $z=\dfrac{1}{arctg\dfrac{y}{x}}$

267. $z=\ell ntg\dfrac{c}{y}$ 268. $z=\ell n(x+\ell ny)$ 269. $z=arctg\dfrac{x+y}{1-xy}$ $z'_x, z'_y - ?$

270. $z=\ln(x^2+y^2)$ sirtga M(1,0,0) nuqtada o'tkazilgan urinma va normal tenglamasini tuzing.

J: $z-2x+2=0$, $\dfrac{x-1}{2}=\dfrac{y}{0}=\dfrac{z}{-1}$

Ko`p o`zgaruvchili funksiyaning to`liq differensiali

$dz=\dfrac{\partial z}{\partial x}dx+\dfrac{\partial z}{\partial x}dy$ ifoda $z=F(x,y)$ funksiyaning to`liq differensiali deb ataladi.

1-misol. $z=\sqrt{x^2+y^2}$ funksiyaning to`liq differensialini toping.

$$\frac{\partial z}{\partial x}=\frac{1}{2\sqrt{x^2+y^2}}\cdot 2x=\frac{x}{\sqrt{x^2+y^2}} \qquad \frac{\partial z}{\partial y}=\frac{1}{2\sqrt{x^2+y^2}}\cdot 2y=\frac{y}{\sqrt{x^2+y^2}}$$

$$dz=\frac{xdx+ydy}{\sqrt{x^2+y^2}}$$

2-misol. $u=x^5-y^4-5z^3$ funksiyaning to`liq differensialini toping.

$\dfrac{\partial u}{\partial x}=5x^4$ x bo`yicha xususiy hosila, $\dfrac{\partial u}{\partial y}=-4y^3$ $y$ bo`yicha xususiy hosila.

$\dfrac{\partial u}{\partial z}=-15z^2$ z bo`yicha xususiy hosila.

$$du=5x^4dx-4y^3dy-15z^2dz$$

3-misol. $z=arctg\dfrac{x+y}{x-y}$ funksiyaning to`liq differensialini toping.

$$\frac{\partial z}{\partial x}=\frac{1}{1+\left(\dfrac{x+y}{x-y}\right)^2}\cdot\frac{1(x-y)-1(x+y)}{(x-y)^2}=\frac{(x-y)^2}{(x-y)^2-(x+y)^2}\cdot$$

$$\cdot\left(\frac{-2y}{(x-y)^2}\right)=\frac{-2y}{2x^2+2y^2}=\frac{-y}{x^2+y^2}$$

$$\frac{\partial z}{\partial y}=\frac{1}{1+\left(\dfrac{x+y}{x-y}\right)^2}\cdot\frac{1(x-y)-(-1)(x+y)}{(x-y)^2}=\frac{x}{x^2+y^2}$$

$$dz=-\frac{y}{x^2+y^2}dx+\frac{x}{x^2+y^2}dy=\frac{xdy-ydx}{x^2+y^2}$$

Darsda yechish uchun misollar

To`liq differensialini toping.

271. $z = x^2 y$ J: $dz = 2xydx + x^2 dy$

272. $z = \frac{x+y}{x-y}$ J: $dz = \frac{2(xdy - ydx)}{(x-y)^2}$

273. $z = \frac{x^2 + y^2}{x^2 - y^2}$ J: $dz = \frac{4xy(xdy - ydx)}{(x^2 - y^2)^2}$

274. $z = arctg(xy)$ J: $\frac{xdy + ydx}{1 + x^2 y^2}$

275. $u = x^{yz}$ J: $du = x^{zy-1}(yzdx + zx\ell nxdy + xy\ell nxdz;$

276. $z = \sin(xy)$ J: $dz = (xdy + ydx)\cos(xy);$

277. $Z = \frac{xy}{x-y}$ J: $\frac{(2xy - y^2)dx + (x^2 - 2xy)dy}{(x-y)^2}$

278. $Z = e^{\frac{s}{t}}$ J: $e^{\frac{s}{t}} \cdot \frac{1}{t^2}(-sdt + ds)$

279. $U = \sqrt{x^2 + y^2 + z^2}$ J: $\frac{xdx + ydy + zdz}{\sqrt{x^2 + y^2 + z^2}}$

Mustaqil uy vazifasi uchun misollar

280. $Z = \sqrt{x^2 + y^2}$ 281. $z = \arcsin\frac{x}{y}$ 282. $Z = \frac{x}{y} - \frac{y}{x}$

283. $S = x \cdot \ln t$ 284. $u = \sqrt{1 - x^2 - y^2 - z^2}$ 285. $z = arctg\frac{y}{x}$

286. $u = \cos\sqrt{1 + x^2 + y^2 + z^2}$

Yuqori tartibli hosilalar.

$$\frac{\partial\left(\frac{\partial F}{\partial x}\right)}{\partial x} = \frac{\partial^2 F}{\partial x^2}; \qquad \frac{\partial\left(\frac{\partial F}{\partial x}\right)}{\partial y} = \frac{\partial^2 F}{\partial x \partial y};$$

$$\frac{\partial\left(\frac{\partial F}{\partial y}\right)}{\partial x} = \frac{\partial^2 F}{\partial x \partial y}; \qquad \frac{\partial\left(\frac{\partial F}{\partial y}\right)}{\partial y} = \frac{\partial^2 F}{\partial y^2};$$

Uchinchi tartibli va boshqa yuqori tartibli xususiy hosilalar ham belgilanadi. Hosila olish tartibi bilangina farqlanuvchi aralash hosilalar uzluksiz bo`lsalar, ular o`zaro teng bo`ladi.

$$\frac{\partial^2 F}{\partial x \partial y} = \frac{\partial^2 F}{\partial y \partial x}; \qquad \frac{\partial^3 F}{\partial x^2 \partial y} = \frac{\partial^3 F}{\partial x \partial y \partial x} = \frac{\partial^3 F}{\partial y \partial x^2}$$

1-misol.

$z = x^3 + xy^2 - 5xy^3 + y^5$ funksiya berilgan $\frac{\partial^2 z}{\partial x \partial y} = \frac{\partial^2 z}{\partial y \partial x}$ ekanligini ko`rsating.

Yechish: $\frac{\partial z}{\partial x}=3x^2+y^2-5y^3$ $\qquad \frac{\partial z}{\partial y}=2xy-15xy^2+5y^4$

$\frac{\partial^2 z}{\partial x\partial y}=2y-15y^2$ $\qquad \frac{\partial^2 z}{\partial y\partial x}=2y-15y^2$ demak, $\frac{\partial^2 z}{\partial x\partial y}=\frac{\partial^2 z}{\partial y\partial x}$

2-misol:

$z=\ell n(x+\sqrt{x^2+y^2})$ funksiya berilgan $\frac{\partial^2 z}{\partial x^2}, \frac{\partial^2 z}{\partial y\partial x}, \frac{\partial^2 z}{\partial y^2}$ larni toping.

Yechish:

$$\frac{\partial z}{\partial x}=\frac{1}{x+\sqrt{x^2+y^2}}\cdot\left(1+\frac{1}{2\sqrt{x^2+y^2}}\cdot 2x\right)=\frac{1}{x+\sqrt{x^2+y^2}}\cdot\left(\frac{\sqrt{x^2+y^2}+x}{\sqrt{x^2+y^2}}\right)=\frac{1}{\sqrt{x^2+y^2}}$$

$$\frac{\partial^2 z}{\partial x^2}=\frac{1}{x^2+y^2}\cdot\frac{1}{2\sqrt{x^2+y^2}}\cdot 2x=-\frac{1}{\sqrt{(x^2+y^2)^3}}$$

$$\frac{\partial^2 z}{\partial x\partial y}=-\frac{1}{x^2+y^2}\cdot\frac{1}{2\sqrt{x^2+y^2}}\cdot 2x=-\frac{y}{\sqrt{(x^2+y^2)^3}}$$

$$\frac{\partial^2 z}{\partial y^2}=\frac{1}{x+\sqrt{x^2+y^2}}\cdot\frac{1}{2\sqrt{x^2+y^2}}\cdot 2y=\frac{y}{\left(\left(x+\sqrt{x^2+y^2}\right)\cdot\sqrt{x^2+y^2}\right)}$$

$$\frac{\partial^2 z}{\partial y^2}=\frac{\left(x+\sqrt{x^2+y^2}\right)\cdot\sqrt{x^2+y^2}-y\left(\frac{2y\sqrt{x^2+y^2}}{2\sqrt{x^2+y^2}}\cdot+\frac{\left(x+\sqrt{x^2+y^2}\right)}{2\sqrt{x^2+y^2}}\cdot 2y\right)}{\left(x+\sqrt{x^2+y^2}\right)^2\left(x^2+y^2\right)}=$$

$$=\frac{\left(x+\sqrt{x^2+y^2}\right)\left(x^2+y^2\right)-y^2\sqrt{x^2+y^2}-y^2\left(x+\sqrt{x^2+y^2}\right)}{\sqrt{\left(x^2+y^2\right)^3}\left(x+\sqrt{x^2+y^2}\right)^2}=$$

$$=\frac{x^3+xy^2+x^2\sqrt{x^2+y^2}-y^2\sqrt{x^2+y^2}}{\sqrt{(x^2+y^2)^3}\cdot\left(x+\sqrt{x^2+y^2}\right)^2}=\frac{x^3+(x^2-y^2)\sqrt{x^2+y^2}}{\sqrt{(x^2+y^2)^3}\left(x+\sqrt{x^2+y^2}\right)^2}$$

Darsda yechish uchun misollar.

287. $z=\frac{x^2}{1-2y}$ ikkinchi tartibli xususiy hosilalar topilsin.

J: $\frac{\partial^2 z}{\partial x^2}=\frac{2}{1-2y}$ $\frac{\partial^2 z}{\partial x\partial y}=\frac{4x}{(1-2y)^2}$ $\frac{\partial^2 z}{\partial y^2}=\frac{8x^2}{(1-2y)^3}$

288. $z=\frac{xy}{x-y}$ funksiya berilgan $\frac{\partial^2 z}{\partial x^2}+2\frac{\partial^2 z}{\partial x\partial y}+\frac{\partial^2 z}{\partial y^2}=\frac{2}{x-y}$ ekanligi isbot qilinsin.

289. 1) $z=x^y$ funksiya berilgan $\frac{\partial^2 z}{\partial x\partial y}=\frac{\partial^2 z}{\partial y\partial x}$ ekanligi isbot qilinsin.

2) $f(x,y)=x^y$ $x=\frac{u}{v}$, $y=uv$ $f''_{uu}(x,y)$, $f''_{vv}(x,y)$, $f''_{uv}(x,y)$, df, $d^2 f$ larni toping.

290. $z=\frac{1}{3}\sqrt{(x^2+y^2)^3}$ funksiya berilgan $\frac{\partial^2 z}{\partial x^2},\frac{\partial^2 z}{\partial x\partial y},\frac{\partial^2 z}{\partial y^2}$ larni toping.

J: $\frac{\partial^2 z}{\partial x^2}=\frac{2x^2+y^2}{\sqrt{x^2+y^2}}$ $\frac{\partial^2 z}{\partial y^2}=\frac{x^2+2y^2}{\sqrt{x^2+y^2}}$ $\frac{\partial^2 z}{\partial x\partial y}=\frac{xy}{\sqrt{x^2+y^2}}$

291. $z=\ell n(x^2+y^2)$ $\frac{\partial^3 z}{\partial x\partial y^2}=?$ J: $\frac{\partial^3 z}{\partial x\partial y^3}=\frac{4x(3y^2-x^2)}{(x^2+y^2)^3}$

Mustaqil uy vazifasi uchun misollar

292. $z=\sin^2(ax+by)$ ikkinchi tartibli xususiy hosilalarini toping

293. $z=\frac{x-y}{x+y}$ ikkinchi tartibli xususiy hosilalarni toping.

294. $z=y^{\ell nx}$ ikkinchi tartibli xususiy hosilalarni toping

295. $u=\sqrt{x^2+y^2+z^2-2xz}$ $\frac{\partial^2 u}{\partial y\partial z}=?$

Ko`p o`zgaruvchili funksiyaning ekstremumlari.

Ekstremumning zaruriy sharti $z=F(x,y)$ funksiya faqat $\frac{\partial F}{\partial x}=0$ va $\frac{\partial F}{\partial y}=0$ nuqtalardagina ekstremumga ega bo`lishi mumkin. Bu nuqtalar kritik nuqtalar deyiladi.

yetarli shartlar. $\frac{\partial^2 F}{\partial x^2}=A$ $\frac{\partial^2 F}{\partial x\partial y}=B$ va $\frac{\partial^2 F}{\partial y^2}=C$ orqali belgilaymiz.

$\Delta=AC-B^2>0$ bo`lsa ekstremum mavjud bo`lib;
$A>0$ bo`lsa, minimum nuqta bo`ladi.
$A<0$ bo`lsa, maksimum nuqta bo`ladi.
$\Delta<0$ bo`lsa, ekstremum nuqta bo`lmaydi.
$\Delta=0$ bo`lsa, u holda ekstremum bo`lishi ham, bo`lmasligi ham mumkin.

1-misol.

$z=x^3+xy^2-5xy^3+y^5$ funksiya berilgan $\frac{\partial^2 z}{\partial x\partial y}=\frac{\partial^2 z}{\partial y\partial x}$ ekanligini ko`rsating.

Yechish: $\frac{\partial z}{\partial x}=3x^2+y^2-5y^3$ $\frac{\partial z}{\partial y}=2xy-15xy^2+5y^4$

$\frac{\partial^2 z}{\partial x\partial y}=2y-15y^2$ $\frac{\partial^2 z}{\partial y\partial x}=2y-15y^2$ demak, $\frac{\partial^2 z}{\partial x\partial y}=\frac{\partial^2 z}{\partial y\partial x}$

2-misol:

$z = \ell n(x + \sqrt{x^2 + y^2})$ funksiya berilgan $\frac{\partial^2 z}{\partial x^2}, \frac{\partial^2 z}{\partial y \partial x}, \frac{\partial^2 z}{\partial y^2}$ larni toping.

Yechish:

$$\frac{\partial z}{\partial x} = \frac{1}{x + \sqrt{x^2 + y^2}} \cdot \left(1 + \frac{1}{2\sqrt{x^2 + y^2}} \cdot 2x\right) = \frac{1}{x + \sqrt{x^2 + y^2}} \cdot \left(\frac{\sqrt{x^2 + y^2} + x}{\sqrt{x^2 + y^2}}\right) = \frac{1}{\sqrt{x^2 + y^2}}$$

$$\frac{\partial^2 z}{\partial x^2} = \frac{1}{x^2 + y^2} \cdot \frac{1}{2\sqrt{x^2 + y^2}} \cdot 2x = -\frac{1}{\sqrt{(x^2 + y^2)^3}}$$

$$\frac{\partial^2 z}{\partial x \partial y} = -\frac{1}{x^2 + y^2} \cdot \frac{1}{2\sqrt{x^2 + y^2}} \cdot 2x = -\frac{y}{\sqrt{(x^2 + y^2)^3}}$$

$$\frac{\partial^2 z}{\partial y^2} = \frac{1}{x + \sqrt{x^2 + y^2}} \cdot \frac{1}{2\sqrt{x^2 + y^2}} \cdot 2y = \frac{y}{\left(\left(x + \sqrt{x^2 + y^2}\right)\left(\cdot \sqrt{x^2 + y^2}\right)\right)}$$

$$\frac{\partial^2 z}{\partial y^2} = \frac{\left(x + \sqrt{x^2 + y^2}\right) \cdot \sqrt{x^2 + y^2} - y\left(\frac{2y\sqrt{x^2 + y^2}}{2\sqrt{x^2 + y^2}} \cdot + \frac{\left(x + \sqrt{x^2 + y^2}\right)}{2\sqrt{x^2 + y^2}} \cdot 2y\right)}{\left(x + \sqrt{x^2 + y^2}\right)^2 \left(x^2 + y^2\right)} =$$

$$= \frac{\left(x + \sqrt{x^2 + y^2}\right)\left(x^2 + y^2\right) - y^2\sqrt{x^2 + y^2} - y^2\left(x + \sqrt{x^2 + y^2}\right)}{\sqrt{\left(x^2 + y^2\right)^3}\ \left(x + \sqrt{x^2 + y^2}\right)^2} =$$

$$= \frac{x^3 + xy^2 + x^2\sqrt{x^2 + y^2} - y^2\sqrt{x^2 + y^2}}{\sqrt{(x^2 + y^2)^3}\ \left(x + \sqrt{x^2 + y^2}\right)^2} = \frac{x^3 + (x^2 - y^2)\sqrt{x^2 + y^2}}{\sqrt{(x^2 + y^2)^3}\ \left(x + \sqrt{x^2 + y^2}\right)^2}$$

3-misol:

$z = x^2 - xy + y^2 + 9x - 6y + 20$ funksiyaning ekstremumini toping.

Yechish: $\frac{\partial z}{\partial x} = 2x - y + 9$ $\quad \frac{\partial z}{\partial x} = -x + 2y - 6$

$$\begin{cases} \frac{\partial z}{\partial x} = 0 \\ \frac{\partial z}{\partial y} = 0 \end{cases} \quad \begin{cases} 2x - y + 9 = 0 \\ -x + 2y - 6 = 0 \end{cases} \Rightarrow \begin{cases} 2x - y = -9 \\ -x + 2y = 6 \end{cases} \Rightarrow \begin{cases} 2x - y = -9 \\ 3y = 3 \end{cases} \quad y = 1, \quad x = -4$$

$$\frac{\partial^2 z}{\partial x^2} = 2 \qquad \frac{\partial^2 z}{\partial y^2} = 2 \qquad \frac{\partial^2 z}{\partial x \partial y} = -1 \qquad A = 2\ \ B = -1 \qquad C = 2$$

$$\Delta = AC - B^2 = 4 - 1 = 3 > 0$$

$\Delta > 0$ demak ekstremum mavjud. $A > 0$ bo\`lgani uchun minimum nuqta.

$z_{\min}(x = -4, y = 1) = 16 + 4 + 1 - 36 - 6 + 20 = -1$. Demak $z_{\min} = -1$

Darsda yechish uchun misollar.

296. $z = 4(x-y) - x^2 - y^2$ funksiya berilgan ekstremumini toping. J: .(2;-2)

297. $z = x^2 + xy + y^2 + x - y - 1$ ekstremumini toping. J: (-1;1)

298. $x = y = \frac{a}{\sqrt[3]{3}}$ nuqta $z = x^2 + xy + y^2 + \frac{a^3}{x} + \frac{a^2}{y}$ funksiyaning minimum nuqtasi ekanligini ko`rsating.

299. $z = y\sqrt{x} - y^2 - x + 6y$ ekstremumini toping. J: $z\min = 9$ $x = 0, y = 3$

Mustaqil uy vazifasi uchun misollar

300. $z = 3x + 6y - x^2 - xy - y^2$ 301. $z = x^2 + y^2 - 2x - 4\sqrt{xy} - 2y + 8$

302. $z = 2x^3 - xy^2 + 5x^2 + y^2$ 303. $z = 3x^2 - 2x\sqrt{y} + y - 8x + 8$

Ikki o`lchovli integral va uning yordamida yuza hisoblash.

$$S = \lim_{\substack{\Delta x \to 0 \\ \Delta y \to 0}} \sum\sum \Delta x \Delta y = \iint_{(S)} dxdy = \int_a^b dx \int_{y_1(x)}^{y_2(x)} dy$$

Agar, (S) soha $h \le y \le \ell$, $x_1(y) \le x \le x_2(y)$ tengsizliklar bilan aniqlangan bo`lsa u holda

$$S = \iint_{(S)} dxdy = \int_h^{\ell} dy \int_{x_1(y)}^{x_2(y)} dx$$

1-misol: $\int_{-2}^{1} \left(\int_x^{2-x^2} dy \right) dx$ ni hisoblang.

Yechish: $\int_{-2}^{1} \left(\int_x^{2-x^2} dy \right) dx = \int_{-2}^{1} (2 - x^2 - x) dx = \left[2x - \frac{x^3}{3} - \frac{x^2}{2} \right]\Bigg|_{-2}^{1} = \frac{9}{2}$

2-misol: $x = 4y - y^2$ va $x + y = 6$ chiziqlar bilan chegaralangan figuraning yuzi hisoblansin.

Yechish: $x = 4y - y^2$ va $x + y = 6$ chiziqlarni kesishish nuqtasini topamiz.

$\begin{cases} x = 4y - y^2 \\ x + y = 6 \end{cases}$ ni yechib A(4;2) va B(3;3) nuqtalarni topamiz.

Natijada:

$$S = \int_D dxdy = \int_2^3 dy \int_{6-y}^{4y-y^2} dx = \int_2^3 x \Bigg|_{6-y}^{4y-y^2} dy = \int_2^3 (-y^2 + 5y - 6) dy = \left[-\frac{1}{3} y^3 + \frac{5}{2} y^2 - 6y \right]_2^3 = \frac{1}{6}$$

$$\cdot \int_0^{\frac{\pi}{6}} \left(\frac{4}{3} \cos^2 \theta - 1 \right) d\theta = \int_0^{\frac{\pi}{6}} \left(\frac{2}{3} + \frac{2}{3} \cos 2\theta - 1 \right) d\theta$$

Darsda yechish uchun misollar

304. Hisoblang. $\int_{0}^{2\pi} cos^2 xdx \int_{0}^{a} ydy$ $j: \dfrac{\pi a^2}{2}$ 305. Hisoblang. $\int_{1}^{3} dx \int_{x^3}^{x} (x-y)dy$ $j: 112\dfrac{8}{105}$

306. 1) $\iint_{D} y\ln xdxdy$ D soha quyidagi chiziqlar bilan chegaralangan. $xy=1, \quad y=\sqrt{x} \quad x=2$ J: $5(2\ln 2-1)/8$

2) $\iint_{D} (x^2+y^2)dxdy$ $D=\{(x,y)\in R^2 : 1\le xy \le 2, 0\le x \le 2y \le 4x\}$ D soha bo'yicha 2 karrali integralni hisoblang J: $63/16$

Quyida berilgan chiziqlar bilan chegaralangan
figuralarning yuzini hisoblang

307. $x=y^2-2y \quad x+y=0 \quad J: \dfrac{1}{6}$ 308. $y^2=4x-x^2 \quad y^2=2x \quad J: 2\pi-16/3$

309. 1) $y=2-x \quad y^2=4x+4 \quad J: \dfrac{64}{3}$ 2) $\rho=1, \rho=\dfrac{2}{\sqrt{3}}\cos\varphi$ $j: \dfrac{3\sqrt{3}-\pi}{18}$

310. $3x^2=25x \quad 5x^2=9y \quad J: 5$

311. $x^2+y^2=8$, $x=0, \ y=0, \ z=0, x+y+z=4$ berilgan sirtlar bilan chegaralangan jism hajmini toping. J: $8\pi-\dfrac{32\sqrt{2}}{3}$

Mustaqil uy vazifasi uchun misollar

Ikki o`lchovli integralni hisoblang

312. $\iint_{D} xydxdy \quad (0\le x\le 1, \quad 0\le y\le 2)$ j: 1

313. 1) $\iint_{D} e^{x+y}dxdy \quad (0\le x\le 1, \quad 0\le y\le 1)$ $j: (e-1)^2$

2) $\iint_{D} \sin\sqrt{(x^2+y^2)}dxdy$ $D=\{(x,y)\in R^2 : \pi^2\le x^2+y^2\le 4\pi^2\}$ D soha bo'yicha 2 karrali integralni hisoblang J: $-6\pi^2$

Quyida berilgan chiziqlar bilan chegaralangan
figuralarning yuzini hisoblang

314. $y^2+2y-3x+1=0$
$3x-3y-7=0$ $J: 125/18$

315. $y=4x-x^2 \quad y=2x^2-5x \quad J: 27/2$

316. $x=2y^2, \ y=0, \ z=0, x+2y+z=4$ berilgan sirtlar bilan chegaralangan jism hajmini toping. J: $\dfrac{17}{5}$

Uch o`lchovli integral

Agar $T=\{(x,y,z)\in R^3: x_1\le x\le x_2, y_1(x)\le y\le y_2(x), z_1(x,y)\le z\le z_2(x,y)\}$ bo'lsa,T soha bo'yicha olingan 3 karrali integral $\iiint_T f(x,y,z)\,dxdydz=\int_{x_1}^{x_2}dx\int_{y_1(x)}^{y_2(x)}dy\int_{z_1(x,y)}^{z_2(x,y)}f(x,y,z)dz$ formula bilan hisoblanadi.

O'zgaruvchini almashtirish usuli. $x=x(u,v,w), y=y(u,v,w), z=x(u,v,w)$ bo'lib. $f(x,y,z)$ funksiya berilgan bo'lsin. U holda

$\iiint_T f(x,y,z)\,dxdydz=\iiint_\Delta f(x(u,v,w),y(u,v,w),z(u,v,w))\,|J|\,dudvdw$ bo'ladi.

Bunda J – Yakobian $J=\begin{vmatrix} x'_u & x'_v & x'_w\\ y'_u & y'_v & y'_w\\ z'_u & z'_v & z'_w\end{vmatrix}\ne 0$ formula bilan aniqlanadi.

Xususan, silindirik koordinatalar sistemasida $x=\rho\cos\varphi, y=\rho\sin\varphi, z=z\ , J=\rho$,

sferik koordinatalar sistemasida esa $x=\rho\sin\theta\cos\varphi, y=\rho\sin\theta\sin\varphi, z=\rho\cos\theta\ , J=\rho^2\sin\theta$, $(0\le\rho\prec+\infty, 0\le\varphi\le 2\pi, 0\le\theta\le\pi)$ bo'ladi.

1-misol. $\iiint_T (x^2+y^2)\,dxdydz \quad T:\ x^2+y^2+z^2\le r^2$ sharning yuqori yarmi bo'yicha integralni hisoblang.

Yechish. Sferik koodinatalar sistemasiga o'tsak, $0\le\rho\le r, 0\le\varphi\le 2\pi, 0\le\theta\le\pi/2$ bo'lib,

$$\iiint_T (x^2+y^2)\,dxdydz=\iiint_T \rho^4\sin^3\theta\, d\rho\, d\varphi\, d\theta=\int_0^r p^4dp\int_0^{\pi/2}\sin^3\theta d\theta\int_0^{2\pi}d\varphi=$$

$$=2\pi\int_0^r p^4dp\int_0^{\pi/2}(\sin^2\theta-1)d\cos\theta=2\pi\int_0^r p^4dp[\frac{1}{3}\cos^3\theta-\cos\theta]_0^{\frac{\pi}{2}}=\frac{4}{15}\pi r^5$$

Darsda yechish uchun misollar

317. $\iiint_T (x^2+y^2+z^2)\,dxdydz \quad T:\ 0\le x\le a,\ 0\le y\le b,\ 0\le z\le c \quad j: \dfrac{abc(a^2+b^2+c^2)}{3}$

318. $\iiint_T xyzdxdydz \quad T:\ x^2+y^2+z^2=1 \quad x=0, y=0, z=0 \quad j: \dfrac{1}{48}$

319. $\iiint_T xy^2z^3dxdydz \quad T:\ z=xy, y=x, x=1, z=0 \quad j: \dfrac{1}{364}$

320. $\iiint_T zdxdydz \quad T:\ x^2+y^2=z^2,\ z=2\ \ j: 4\pi$

Mustaqil uy vazifasi uchun misollar

321. $\iiint_T (x^2+y+z^2)^3\,dxdydz \quad T:\ x^2+y^2=1, y=0, y=1\ \ j: \dfrac{3\pi}{2}$

322. $\iiint_T dxdydz \quad T:\ x^2+y^2+z^2\le r^2 \quad j: \dfrac{4\pi r^3}{3}$

323. $\iiint_T z\sqrt{x^2+y^2}\,dxdydz \quad T:\ x^2+y^2=2x, y=0, z=0, z=a \quad j: \dfrac{8a^2}{9}$

Egri chiziqli integrallar

Aniq integral tushunchasini integrallash sohasi tekislikda yotuvchi qandaydir egri chiziqni bir qismi bo'lgan hol uchun umumlashtiramiz.

Bunday turdagi integrallar egri chiziqli integrallar deb ataladi.

Egri chiziqli integrallar ikki turda bo'ladi: birinchi va ikkinchi tur egri chiziqli integrallar. Tushunishga qulaylik tug'dirish maqsadida ta'rifni tekislikda yotgan egri chiziq uchun beramiz.

$$\sum_{i=1}^{n} f(M_i^*)\Delta l_i$$

yig'indini tuzamiz, bu yerda Δl_i $M_{i-1}M_i$ yoy uzunligi, M_i^* $M_{i-1}M_i$ yoyning ixtiyoriy nuqtasi.

Ta'rif. Agar integral yig'indi $\Delta l_i \to 0$ da J limitga ega bo'lsa, u holda bu limit AB egri chiziq bo'yicha f(x,y) funktsiyadan olingan I-tur egri chiziqli integral deb ataladi va quyidagicha belgilanadi.

$$J = \int_{AB} f(M)dl$$

$$J = \int_{AB} f(x,y)dl$$

I-tur egri chiziqli integralni aniq integralga keltirish mumkin. AB egri chiziqda parametr sifatida A nuqtadan boshlanadigan yoy uzunligi l ni olsak, egri chiziqli $x = x(l), y = y(l)$ parametrik ko'rinishini hosil qilamiz.

U holda I-tur egri chiziqli integral

$$\int_{AB} f(xy)dl = \int_{0}^{l} f(x(l), y(l))dl$$

AB egri chiziq $x = \varphi(t),\ y = \psi(t)$ parametrik tenglamalar bilan berilgan bo'lsin. U holda I-tur egri chiziqli integral quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi.

$$\int_{AB} f(x,y)dl = \int_{\alpha}^{\beta} f[\varphi(t),\psi(t)]\sqrt{(\varphi'(t))^2 + (\psi'(t))^2}\,dt \qquad (1)$$

Agar AB egri chiziq $y = y(x)$, tenglama bilan berilgan bo'lsa $(a \le x \le b)$, u holda I-tur egri chiziqli integral

$$\int_{AB} f(x,y)dl = \int_{a}^{b} f(x, y(x))\sqrt{1 + [y'(x)]^2}\,dx \qquad (2)$$

ko'rinishni oladi.

II - tur egri chiziqli integral

$$\int_{AB} P(x,y)dx + \int_{AB} Q(x,y)dy$$

yig'indi ikkinchi tur egri chiziqli integral deb ataladi va

$$\int_{AB} P(x,y)dx + Q(x,y)dy$$

ko'rinishda belgilanadi.

Faraz qilaylik, AB egri chiziq $x=\varphi(t), \quad y=\varphi(t), \quad \alpha\le t\le\beta$ parametrik tenglamalar bilan berilgan bo'lsin, bu yerda $\varphi(t)$ *ва* $\psi(t)$ uzluksiz $\varphi'(t)$ *ва* $\psi'(t)$ hosilalarga ega bo'lgan funktsiyalar.

U holda quyidagi formulalar o'rinli.

$$\int\limits_{AB} P(x,y)dx=\int\limits_{\alpha}^{\beta} P[\varphi(t),\psi(t)]\varphi(t)$$

$$\int\limits_{AB} Q(x,y)dx=\int\limits_{\alpha}^{\beta} Q[\varphi(t),\psi(t)]\varphi(t)$$

$$\int\limits_{AB} P(x,y)dx+Q(x,y)dy=\int\limits_{\alpha}^{\beta}\{P[\varphi(t),\psi(t)]\varphi(t)+Q[\varphi(t),\psi(t)]\psi(t)\}dt \qquad (3)$$

1-misol. $\int\limits_{c}(x^2+y^2)dl$ egri chiziqli integralni $x=a\cos t, \quad y=a\sin t \quad o\le t\le 2\pi$ parametrik formulalar bilan berilgan S aylana bo'yicha hisoblang.

yechish: Integralni (1) formula bo'yicha hisoblaymiz. $\varphi'(t)=-a\sin t, \quad \psi'(t)=\cos t$ bo'lganligi uchun

$$\int\limits_{c}(x^2+y^2)dl=\int\limits_{o}^{2\pi}(a^2cos^2t+a^2\sin^2 t)\sqrt{a^2\sin^2 t+a^2cos^2t}\,dt=$$

$$\int\limits_{o}^{2\pi}a^2(cos^2t+\sin^2 t)\sqrt{a^2(\sin^2 t+a^2cos^2t)}\,dt=\int\limits_{o}^{2\pi}a^2\cdot a\,dt=2\pi a^3.$$

2-misol. $\int\limits_{c}(x-y)de$ egri chiziqli integralni hisoblang, bu yerda s to'g'ri chiziqning A(0;0) nuqtadan B (4;3) nuqtagacha bo'lgan qismi:

Yechish: Avval A(0;0) va B(4;3) nuqtalardan o'tuvchi to'g'ri chiziq tenglamasini tuzib olamiz.

$A(x_1y_1)$ *va* $B(x_2y_2)$ nuqtalardan o'tuvchi to'g'ri chiziq tenglamasini topish $\frac{x-x_1}{x_2-x_1}=\frac{y-y_1}{y_2-y_1}$ formulasiga asosan $\frac{x-0}{4-0}=\frac{y-0}{3-0}$ bu yerdan $y=\frac{3}{4}x$ $\quad y'=\frac{3}{4}$ bo'lgani uchun (2) formulaga asosan

$$\int\limits_{c}(x-y)dl=\int\limits_{0}^{4}(x-\frac{3}{4}x)\sqrt{1+\frac{9}{16}}\,dx=\frac{5}{16}\int\limits_{0}^{4}xdx=\frac{5}{32}x^2\Big|_0^4=\frac{5}{2}.$$

3-misol. $\int\limits_{L}2xydx-x^2dy$ egri chiziqli integral hisoblang, bu yerda L O(0,0) va A(2,1) nuqtalarni birlashtiruvchi to'g'ri chiziq kesmasi.

Yechish.



OA kesmani ko'ramiz. Integrallash yo'li tenglamasini tuzamiz. Buning uchun ikki nuqtadan o'tuvchi to'g'ri chiziq tenglamasiga $\frac{x-x_1}{x_2-x_1}=\frac{y-y_1}{y_2-y_1}$ ga ko'ra OA to'g'ri chiziq tenglamasini tuzamiz.

$OA: \frac{x-0}{2-0}=\frac{y-0}{1-0} \Rightarrow y=\frac{1}{2}x, \quad 0\le x\le 2$ formulaga asosan

$$\int_L 2xydx - x^2dy = \int_0^2 2x\frac{1}{2}xdx - x^2(\frac{1}{2}x)'dx = \int (x^2-\frac{1}{2}x^2)dx = \frac{1}{2}\int_0^2 x^2dx = \frac{1}{2}\cdot\frac{x^3}{3}\Big|_0^2 = \frac{4}{3}.$$

Darsda yechish uchun misollar

Quyidagi egri chiziqli integrallar hisoblansin.

324. $\int_K (x-y)ds$, $K: A(0,0), B(4,3)$ nuqtalarni tutashtiruvchi kesma.

325. $\int_{AB} \frac{yds}{\sqrt{x}}$, $AB: y=\frac{4}{9}x^3$ $A(3,2\sqrt{3})$, B$(8,\frac{32\sqrt{2}}{3})$ yarimkubik parabola bo'yicha.

326. $\int_L (x^2+y^2)dx + ydy$ egri chiziqli integralni hisoblang. Bu yerda L $y=e^x$ egri chiziqning A(0;1) nuqtalardan B(1;e) bo'lgan yoyini hisoblang.

327. $\int y^2dx + 2xy\,dy$ integral $x=a\cos t_1$ $y=a\sin t$ aylana bo'yicha.

328. $\int ydx - xdy$ integral $x=\cos t_1$ $y=a\sin t$ ellips yoyi bo'yicha.

329. $\int\left(\frac{x}{x^2+y^2}dx - \frac{y}{x^2+y^2}dy\right)$ integral markazi koordinatalar boshida bo'lgan aylana bo'yicha.

330. $\int\frac{ydx+xdy}{x^2y^2}$ integral $y=x$ to'g'ri chiziqning $x=1$ dan $x=2$ gacha kesmasi bo'yicha.

331. $\int yzdx + xzdy + xydz$ integral t= 0 dan 2π gacha o'zgarganida
$x=a\cos t$ $y=a\sin t$, $z=rt$ chizig'ining yoyi bo'yicha.

332. $\int xdy - y\,dx$ integral $x=a\cos^3 t_1$ $y=a\sin^3 t$ astroidaning yoyi bo'yicha. .

Mustaqil yechish uchun misollar

333. $\int_K (x+2y)ds$, $K: A(0,0), B(1,3)$ nuqtalarni tutashtiruvchi kesma.

334. $\int_{AB} \frac{y^2ds}{\sqrt{x}}$, $AB: y=\frac{4}{9}x^3$ $A(3,2\sqrt{3})$, B$(8,\frac{32\sqrt{2}}{3})$ yarimkubik parabola bo'yicha.

335. $\int xdy - yxd$ integral $x=\frac{3at}{1+t^3}$; $y=\frac{3at^2}{1+t^3}$ Dekart yaprog'ining sirtmog'i bo'yicha.

336. $\int xdy - ydx$ integral $x=a(t-\sin t)$, $y=a(1-\cos t)$ $(0\le t\le 2\pi)$ egri chiziq bo'yicha.

337. $\int_{AB} (x^2-y^2)dx + xydy$ bu yerda AB: A(1;1), B(3;4) nuqtalardan o'tuvchi to'g'ri chiziq.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Jo`raev T. va boshqalar, Oliy matematika asoslari, 1-2 tom, Toshkent, «O`zbekiston» 1995, 1999.
2. Soatov YO., Oliy matematika asoslari, 1, 2, 3 tom, Toshkent, «O`qituvchi», 1992, 1994, 1996.
3. Azlarov T., Mansurov X., Matematik analiz, 1, 2-qism, Toshkent, «O`qituvchi», 1986, 1989.
4. Abdalimov B. A., Oliy matematika, Toshkent, «O`qituvchi», 1994.
5. Latipov X. va boshqalar, Analitik geometriya va chiziqli algebra, Toshkent, «O`zbekiston», 1995
6. П.Е. Данко, А.Г. Попов, Т.Я. Кожевникова, высшая математика в упражнениях и задачах , часть 1, 2 , москва, «высшая школа» 1986.